

JAHON DINLARIDA OLIA VA NIKOH MAQSADLARI

Toshkent Axborot Texnologiyalari

Universiteti Samarqand filiali

BAHRULLAYEV RAFAEL

Anotatsiya- Mazkur maqola jahon dinlarida oila va nikoh institutining o‘rni va ahamiyatini keng qamrovda yoritadi. Dastlab, oilaning jamiyatdagi asosiy ijtimoiy birlik sifatidagi ahamiyati ta’kidlanib, diniy ta’limotlarda oilaga berilgan e’tibor haqida so‘z yuritiladi. Islom dinida nikohning Alloh amri va Payg‘ambar sunnati sifatida talqin qilinishi, uning axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy jihatlari tahlil etiladi. Xristianlikda nikoh muqaddas marosim sifatida qaralib, erkak va ayol o‘rtasidagi sadoqat va fidokorlik asosida oilani barpo etish tushunchasi yoritilgan. Yahudiylikda nikoh huquqiy va diniy majburiyatlar bilan mustahkamlangan ijtimoiy institut sifatida ko‘rsatilib, ketuba (nikoh shartnomasi)ning roli va ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada zamonaviy davrda globalizatsiya va modernizatsiya jarayonlarining diniy qadriyatlar va nikoh institutiga ko‘rsatgan ta’siri ham alohida tahlil qilinadi. Muallif dinlarning oilani nafaqat biologik reproduksiya vositasi, balki axloqiy, ma’naviy va tarbiyaviy institut sifatida ko‘rishini ko‘rsatadi. Maqola orqali oila va nikohning diniy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni chuqur ochib berilgan.

1-Kirish: Oila insoniyat jamiyatining eng qadimgi va asosiy ijtimoiy institutlaridan biridir. U biologik, ijtimoiy va ma’naviy ehtiyojlarni qondirishda, shuningdek, jamiyatdagi barqarorlik va axloqiy me’yorlarni saqlab qolishda muhim rol o‘ynaydi. Jahon dinlari tarixiy taraqqiyoti davomida oilaning shakllanishi va rivojlanishi diniy qadriyatlar va ko‘rsatmalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Har bir yirik din — Islom, xristianlik, yahudiylik, hinduiylik va buddizm — oilani nafaqat insonlar o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlar tizimi sifatida, balki ilohiy irodani aks ettiruvchi muqaddas birlik sifatida ham ko‘radi.

Bu maqolada turli dinlarda nikohning maqsadi, oilaning ijtimoiy va ma'naviy vazifalari, shuningdek, dinlarning oilaviy qadriyatlarga bo'lgan yondashuvlari tahlil qilinadi. Maqsad — oila va nikoh institutining turli diniy tizimlardagi o'rni va ahamiyatini o'rganish orqali, ularning jamiyatdagi doimiy ahamiyatini ko'rsatishdir.

2-Asosiy qism: Juhon dinlarida oila va nikoh maqsadlari

Juhon dinlari - jahondagi juda ko'p xalqlar e'tiqod qiladigan buddizm, xristianlik va islomga nisbatan ishlataladigan termin. Juhon dinlari jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida buyuk tarixiy burilishlar, bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish davrlarida vujudga kelgan. Juhon dinlari tarixiy jarayonda jahon imperiyalari, davlatlar tarkib topayotgan paytlarda paydo bo'lgan. Juhon dinlariga prozelitizm, faol targ'ibotchilik xosdir, ularning targ'ibotlari xalqlar va millatlararo diniy bag'rikenglikka asoslangan. Bu dinlarning Juhon dinlariga aylanishida barcha odamlarning tengligi to'g'risidagi g'oya asosiy omillardan biri bo'lgan. Muayyan tarixiy sharoitlarda Juhon dinlarining har xil yo'nalishlari, oqimlari vaqt o'tishi bilan ma'lum millatlar yoki davlatlar diniga aylangan. Hozirgi globallashuv sharoitida Juhon dinlarining ta'limotlari, qadriyatlarini jahon xalqlari tomonidan o'rganishga qiziqish ortib bormoqda

Islom dinida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Qur'oni karimda va Hadislarda nikoh – Allohnинг amri va Payg'ambar sunnatidan biri sifatida talqin qilinadi. Islomda nikohning asosiy maqsadi – insonni ma'siyatdan saqlash, halol yo'l bilan nasl qoldirish, axloqiy va diniy tarbiya berilgan avlod yetishtirishdir. Qur'onda nikoh "orom topish va mehr-oqibat asosida yashash" deb ta'riflanadi (Rum surasi, 21-oyat). Nikoh akdi erkak va ayol o'rtasidagi kelishuv asosida amalga oshadi. Oilaning barqarorligi, er-xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-shafqat va mas'uliyatga asoslangan.

Xristianlikda nikoh muqaddas ittifoq hisoblanadi. Injilda nikoh Alloh tomonidan berilgan inoyat deb tushuniladi. "Xudo odamni erkak va ayol qilib yaratdi, ular bir tan bo'lurlar" (Matto 19:4-6). Katolik cherkovida nikoh yetti muqaddas marosimdan biri

sanaladi. Unda nikoh uzilmasligiga katta e'tibor qaratiladi. Protestantlikda esa nikoh ko'proq ijtimoiy shartnoma sifatida qaraladi, lekin uning muqaddasligi inkor qilinmaydi. Xristian an'analarida oila – sevgi, fidokorlik, sadoqat va bolalar tarbiyasi uchun muhim maskan hisoblanadi.

Yahudiylikda nikoh – diniy, huquqiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan muhim institutdir. Nikohdan oldin "ketuba" deb ataluvchi yozma kelishuv tuziladi, bu hujjatda arning ayol oldidagi majburiyatlari qayd etiladi. Yahudiy oilasida farzandli bo'lish – diniy burch hisoblanadi. Er va xotin o'rtasidagi munosabatlar Tora (Yahudiy larning muqaddas kitobi) asosida tartibga solinadi. Shabbot (dam olish kuni)da oila a'zolari birgalikda vaqt o'tkazishi, ruhiy birlikni mustahkamlovchi an'anadir.

Hinduiylikda nikoh – dharma (ma'naviy burch)ni bajarish, artha (moddiy farovonlik)ga erishish va karma (karmaning ijobiy oqibatlarini olish)ni to'g'rilashning vositasi sifatida qaraladi. Nikoh marosimlari Veda matnlariga asoslangan bo'lib, erkak va ayolning ruhiy va jismoniy uyg'unligini ifodalaydi. Buddizmda esa nikoh muqaddas marosim sifatida emas, balki ijtimoiy tartib sifatida qaraladi. Buddhistlar oilaviy hayotda o'zaro hurmat, sabr-toqat, mehr-oqibat kabi qadriyatlarni yuksak baholaydilar.

Yaponiyaning an'anavy dini – Shinto e'tiqodida oila ajdodlar ruhi bilan bog'langan muqaddas maskan hisoblanadi. Nikoh – naslni davom ettirish, ajdodlarga hurmatni ifoda etish vositasi sifatida qadrlanadi. Xitoyning konfutsiylik ta'limotida esa oila ijtimoiy tartibning negizi bo'lib, har bir a'zo o'z burchini sidqidildan ado etishi kerak. Bu dinlarda ota-onaga hurmat, bolaga g'amxo'rlik, o'zaro hurmatga asoslangan oila qadrlanadi.

Milliy dinlar – o'z mazmun-mohiyati bilan asosan bir millatga mansub xalqlar e'tiqod qiladigan dinlardir. Milliy dinlar shakllanishining dastlabki va eng so'nggi davrlarini bir-biridan farqlash lozim. Dastlabki Milliy dinlar quzdorlik jamiyatida vujudga kelgan bo'lib, odatda, politeistik, ya'ni ko'p xudolik dinlari bo'lgan. Masalan, qadimgi grek dini ko'p xudolikning o'zginasidir. Zebs-pantion (qadimgi grek tilida – bosh xudo) hisoblanib, bir ukasi dengiz xudosi, ikkinchi ukasi – yer osti podsholigining xodosi hisoblanar edi. Shuningdek, muhabbat va go'zallik ma'budasi, urush xodosi

xudosi, quyosh xudosi va san'at homiysi va boshqa yana bir qancha xudolar bo'lgan. Quldorlik jamiyatidagi dastlabki Milliy dinlarning o'ziga xos yana bir xususiyati oxirat to'g'risidagi tasavvurning paydo bo'lishi va unga ishonishidir. Ammo bu davrda bunday tasavvurlar hali to'la shakillanmagan edi. Ular keyingi davrlarda rivojlangan. Bu davrda qurbanlik qilish keng rasm bo'lib hatto majburiy marosimlardan biri hisoblanar edi. Xudolar yo'lida meva-cheva, noz-ne'matlardan tortib, uy hayvonlarining barcha turlarigacha, qadim zamonlarda esa hatto odamlar ham qurban qilinar edi. Milliy dinlar rivojlanishining so'nggi davrlariga kelib odamlar o'rniga hayvonlar qurban qilina boshlagan. Shu bilan birga oxirat haqidagi tasavvurlar keng targ'ib qilinardi. Milliy dinlar elat millat dinlari deb ham yuritiladi. Chunki ular urug'-qabila dinlaridan farqli ravishda sinfiy jamiyat qaror topishi va shakillanishi davrida vujudga kelgan va rivojlangan. Binobarin, ular avvalo elatning so'ngra, millatning shakllanishini o'zlarida aks ettirgan. Milliy dinlar tasavvur qilingan xudolar milliy xudolar hisoblanib, ibodat marosimlar asosan muayyan elat yoki millatnikigagina mos tushar edi. Binobarin, bu xildagi qadimgi dinlar milliy davlat xarakterida bo'lishi bilan boshqa din shakillaridan ajralib turgan. Eng so'nggi davrning milliy dinlariga quyidagilar kiradi: hinduizm, jaynizm, sikxizm, daosizm, konfusiylilik, sintoizm va iudaizm (yahudiylilik)

Oila qon-qarindoshlik, qarindoshchilik (nikoh orqali) yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Ko'p jamiyatlarda oila bolalar ijtimoiylashuvi uchun asosiy institut vazifasini o'taydi. Oila borasidagi diniy, ilmiy va falsafiy yondashuvlarni kuzatsak, oila barqarorligida er-xotin munosabatlari asosiy o'rinni tutishini ko'ramiz. Masalan, islomda nikoh orqali inson va oilani ulug'lashga, erkak va ayolning huquqlariga, ularning sha'niga va oilada tinchlikni saqlashga katta e'tibor qaratilgan: "Ayollar (uchun belgilangan huquqlar) o'z me'yorida erkaklar (huquqi) bilan tengdir" Burhonuddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida yozilishicha, oila va nikoh masalasida ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega hukmlardan biri ayolning nikohda qanday haq-huquqlari borligi haqidagi bilimga ega bo'lishidir Antropologlar oilalarni matrilok Milliy dinlar-o'z mazmun-mohiyati bilan

asosan bir millatga mansub xalqlar e'tiqod qiladigan dinlardir. Milliy dinlar shakllanishining dastlabki va eng so'nggi davrlarini bir-biridan farqlash lozim. Dastlabki Milliy dinlar quldarlik jamiyatida vujudga kelgan bo'lib, odatda, politeistik, ya'ni ko'p xudolik dinlari bo'lgan. Masalan, qadimgi grek dini ko'p xudolikning o'zginasidir. Zevs-pantion (qadimgi grek tilida – bosh xudo) hisoblanib, bir ukasi dengiz xodosi, ikkinchi ukasi – yer osti podsholigining xodosi hisoblanar edi. Shuningdek, muhabbat va go'zallik ma'budasi, urush xodosi xodosi, quyosh xodosi va san'at homiysi va boshqa yana bir qancha xudolar bo'lgan. Quldarlik jamiyatidagi dastlabki Milliy dinlarning o'ziga xos yana bir xususiyati oxirat to'g'risidagi tasavvurning paydo bo'lishi va unga ishonishidir. Ammo bu davrda bunday tasavvurlar hali to'la shakillanmagan edi. Ular keyingi davrlarda rivojlangan. Bu davrda qurbanlik qilish keng rasm bo'lib hatto majburiy marosimlardan biri hisoblanar edi. Xudolar yo'lida meva-cheva, noz-ne'matlardan tortib, uy hayvonlarining barcha turlarigacha, qadim zamonalarda esa hatto odamlar ham qurban qilinar edi. Milliy dinlar rivojlanishining so'nggi davrlariga kelib odamlar o'rniga hayvonlar qurban qilina boshlagan. Shu bilan birga oxirat haqidagi tasavvurlar keng targ'ib qilinardi. Milliy dinlar elat millat dinlari deb ham yuritiladi. Chunki ular urug'-qabila dinlaridan farqli ravishda sinfiy jamiyat qaror topishi va shakillanishi davrida vujudga kelgan va rivojlangan. Binobarin, ular avvalo elatning so'ngra, millatning shakllanishini o'zlarida aks ettirgan. Milliy dinlar tasavvur qilingan xudolar milliy xudolar hisoblanib, ibodat marosimlar asosan muayyan elat yoki millatnikigagina mos tushar edi. Binobarin, bu xildagi qadimgi dinlar milliy davlat xarakterida bo'lishi bilan boshqa din shakillaridan ajralib turgan. Eng so'nggi davrning milliy dinlariga quyidagilar kiradi: hinduizm, jaynizm, sikxizm, daosizm, konfusiylilik, sintoizm va iudaizm (yahudiylilik)al (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo'lsa, nuklear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynata-qaynana birga yashovchi) tiplarga ajratishadi.

Oila – nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga

bog‘langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari – inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a’zolarining turmush sharoitini va bo‘sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta’sirida o‘zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o‘zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o‘rnatadi.

Oila jamiyat tarixida azaldan mavjud bo‘lmagan. Ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida, kishilar to‘da-to‘da bo‘lib yashayotgan davrda jinslar orasidagi munosabatlar muayyan tartib-qoidaga ega bo‘lmay, to‘dadagi barcha erkaklar va ayollar bir-birlariga umumiylar er-xotin hisoblangan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida jinsiy munosabatlar asta-sekin muayyan tartibga solina boshlandi. Dastlab ota-onalari bilan farzandlar, so‘ngra aka-uka va opsingillar orasidagi jinsiy munosabatlar taqiplanib, guruhli oila paydo bo‘lgan, lekin bu oilalarda hali er-xotin nikohi barqaror alohida xo‘jalikka ega bo‘lmagan. Bu davrda tabiiy omil o‘z vazifasini tugalladi, ya’ni jinsiy munosabatlar doirasidan qon-qarindoshlar istisno qilindi, jinsiy munosabatlar faqat bir erkak va bir ayol munosabatiga aylandi (yana qarang: Patriarxal oila, Poliandriya, Poligamiya, Poliginiya).

Ijtimoiy ishlab chiqarish – chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi bilan erkaklar mehnatining qadri oshdi, mahsulot ishlab chiqarishda ulushi ortdi, binobarin, ularning ijtimoiy mavqeい ham tubdan o‘zgardi. Mavjud qoida tartiblar – farzandlarning onagagina tegishli bo‘lishi, ona mulkiga merosxo‘r sanalishi erkaklarning yangi mavqeiga zid kelib qoldi. Natijada ota huquqiga asoslangan patriarxal oila vujudga keldi. Shunday qilib, hozirgi individual oilaning o‘tmishdoshi – monogam oila vujudga kelgan (qarang: Monogamiya).

Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarni o‘zida sinoydan o‘tkazadi. Yaxshilarini o‘z bag‘rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o‘z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang‘ich ijtimoiy yo‘nalish beradi. O‘z farzandlarini katta oqimga – jamiyatga

qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyoti, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan. Xususan, o'zbek oilalarining serildizlik, serbutoqlik xususiyatlari hozir ham saqlanib turibdi. O'zbeklarda oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajriba orttirib borishi, tejamli va sarishta ro'zg'or tutishi, farzandlarni odobli, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. o'zbek oilalari o'zlarining mustahkamligi, saranjom-sarishtaligi, bolajonligi, qarindosh-qondoshlik rishtalarini hurmat qilishi, mehr-oqibatli va boshqa qadriyatlari bilan ajralib turadi (qarang Oila tarbiyasi).

O'zbekistonning davlat mustaqilligi tufayli xalqimizning azaliy milliy urf-odat va marosimlari qaytadan tiklana boshlandi, bu udumlar oilani mustahkamlashda muhim o'rin egallaydi. O'zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo'lish huquqiga ega. Onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'yicha boshqa qonuniy hujjatlar ham qabul qilinib, amaliy tadbirlar belgilangan. Jumladan, „Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoya qilish choralari to'g'risida“ 1994-yil 22-avgustda farmon chiqarilib, muhtoj oilalarga moddiy va ma'naviy yordam berishning ko'lami kengaytirildi. Oilani jamiyatning ravnaq topilishidash tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1998-yilni „Oila yili“ deb e'lon qildi. Shunga asosan, oila manfaatlarini ta'minlash borasida amalga oshiriladigan tadbirlar to'g'risida davlat dasturi ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasi Xotinqizlar qo'mitasi huzurida Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilingan.

XULOSA

Jahon dinlarida oila va nikoh institutlari insoniyat jamiyatining ijtimoiy va ma’naviy barqarorligini ta’minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Islom, xristianlik, yahudiylik, hinduiylik, buddizm, shinto va konfutsiylik kabi diniy tizimlarda oila ilohiy irodaning namoyoni va insonlar o’rtasidagi axloqiy, ma’naviy rishtalarning mustahkamlanish vositasi sifatida talqin etiladi. Har bir din nikoh va oilaga o’ziga xos yondashadi: Islomda nikoh Allohning buyrug‘i va sunnat, xristianlikda esa muqaddas marosim sifatida qadrlanadi, yahudiylikda esa huquqiy va diniy majburiyatlar asosida mustahkamlanadi. Sharqiy dinlarda esa nikoh ruhiy uyg‘unlik va karmaviy qadriyatlar bilan bog‘lanadi. Shuningdek shu kabi ma’lumot olishimiz mumkin Globalizatsiya va modernizatsiya ta’siriga qaramay, diniy ta’limotlarda oila va nikoh institutining qadriy ahamiyati saqlanib qolmoqda. Dinlar oilani faqat biologik davomiylilik vositasi emas, balki axloqiy, ma’naviy va ijtimoiy tarbiya maskani sifatida ko‘radi. Shunday ekan, turli dinlarda oila va nikoh institutining qadrlanishi, jamiyat barqarorligi va madaniy merosning uzlucksizligi uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. "Омина" ижтимоий-маърифий электрон журналининг янги, 30-сони. Рабиъул аввал – 1441/2019.
2. Dinshunoslik. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. (Tahrir hay’ati: Xayrullaev M., Jo‘rayev M.) – T.: Sharq, 2002
3. Injil (Bible) – Xristianlik muqaddas kitobi
4. Oila va nikohga doir fiqhiy qarashlar. – T.: Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi nashriyoti, 2020.
5. Islom sivilizatsiyasi markazi rasmiy sayti: www.islamcivilization.uz – Ilmiy-ma’rifiy maqolalar, sharhlar va tahliliy materiallar.
6. Ziyonet elektron kutubxonasi: www.ziyonet.uz – Ma’naviy-ma’rifiy resurslar.